



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

Бош муҳаррир

ўринбосари:

профессор **Д.Х.Асланова**

Масъул котиб:

профессор **М.Қ.Пардаев**

Муҳаррирлар:

Ф.А.Сафаров

Ш.З.Ўрозов

Техник муҳаррир:

А.Н.Холиқулов

Корректор:

С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-
тика кўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ Самарқанд филиали директори,
иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Р.Болтабаев – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ декани, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ доценти, и.ф.д.

МУНДАРИЖА

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Саидахрор Саидахмедович Ғуломов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Учинчи Ренессансни шакллантириш таълим сифатига, таълим сифати педагогинг масъулиятига боғлиқ	5
Зокир Сайфиддинович Артиков, Дамир Улугбекович Хакимов Аҳоли фаровонлиги, ҳаёт даражаси ва сифатини таъминловчи неъматлар, уларнинг турлари, таснифи ва баҳолаш йўллари	10
Зариф Юсупович Аминов Инсон хавфсизлиги тушунчаси ва унинг турлари	16
Шокиржон Шарипжонович Банноев Маҳаллий озиқ-овқат бозорининг ижтимоий-иқтисодий моҳияти ва вазифалари	20
Shahloxon Shavkatovna Sharifova Halol ovqatlanishga doir asosiy kategoriyalar mohiyati va zarurati	25
Акмал Алимжонович Салимов Мамлакат тараққиётини таъминлаш ва уни самарали бошқаришда инсон капиталининг ўрни	31
Ziyobidin Shaminovich Suvonov, Mavluda Shuxratjon qizi Shuxratjonova Halol oziq-ovqat sanoati va uni O‘zbekistonda rivojlantirish istiqbollari	37
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Нозир Алиевич Ибрагимов Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва худуднинг инвестицион жозибадорлигини ошириш – тараққиёт гарови	42
Шухрат Маъруфжонович Исломов, Нодира Абдуллаевна Эшқувватова Рақамли иқтисодиёт шароитида меҳнат ресурсларининг фаол бандлик сиёсати	46
Sardorbek Isroiljon o‘g‘li Qodirov O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tahlili	51
Зарина Ҳусановна Рафиева Рақамли технологиялар орқали банк-молия хизматлари самарадорлигини ошириш йўллари	57
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Рўзибой Нормухоматов, Акрам Джуракулович Ғафуров Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини сақлашнинг илмий асосларини билиш – нобудгарчиликни камайтиришнинг муҳим омилidir	63
Умар Худайбердиев, Нилуфар Зиябаевна Юлдашова Ўзбекистонда деҳқончилик маҳсулотларини етиштириш ва унинг муаммолари	65
Раънохон Махмудовна Каримжанова Наманган вилоятида қандолат маҳсулотлари бозорининг ривожланиш тенденциялари	68
Музаффар Мусаевич Усмонов К вопросам развития кооперации в плодоовощном секторе Узбекистана	72

2. «Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони, 1-илова, 4.1-банд.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (дарслик). -Т.: «Меҳнат», 2009. -512-б.
4. Арабов Н.У. Ўзбекистон Республикасида меҳнат бозори инфратузилмасини ривожлантириш самарадорлигини ошириш (Монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2017, -272-б.
5. Холмўминов Ш.Р., Арабов Н.У. Меҳнат бозори инфратузилмаси. Ўқув қўлланма. – Т.: «Фан ва технологиялар», 2016. -332-б.
6. Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплами. 2007-2016 йиллардаги статистик тўплам.
7. Колесникова О. Об оценке эффективности работы службы занятости. // «Человек и труд», 2002, № 3. -С. 55-56.
8. Смирнов С. Методы оценки государственной политики занятости. // «Вопросы статистики», 1998, № 4. -С. 29-34.
9. <http://tsue.uz/?p=12549>
10. <https://stat.uz/uz/>
11. <https://mehnat.uz/oz>

<p>Ш.Исламов, Н.Эшқувватова Активная политика занятости трудовых ресурсов в цифровой экономике.</p>	<p>Sh.Islamov, N.Eshquvvatova Active employment policy of labor resources in the digital economy</p>
<p>Аннотация: В статье рассмотрены результаты активной политики занятости и экономической и социальной устойчивости повышения эффективности развития инфраструктуры рынка труда нашей республики в условиях инновационного развития экономики.</p> <p>Ключевые слова: инфраструктура рынка труда, служба занятости, показатели оценки, занятость, эконометрическая модель, трудовой потенциал, уровень безработицы.</p>	<p>Abstract: The article considers the results of active employment policy and the economic and social sustainability of improving the efficiency of infrastructure development of the labor market of our republic in the context of innovative economic development.</p> <p>Keywords: labor market infrastructure, employment service, evaluation indicators, employment, econometric model, labor potential, unemployment rate.</p>

Sardorbek Isroiljon o‘g‘li Qodirov – FarPI tayanch doktoranti

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TAHLILI

<p>Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy omili sifatida qaralgan. Turli xorijiy davlatlarning raqamli iqtisodiyot dasturlari tahlil qilingan. Raqamli iqtisodiyotni samarali tashkil etish va yo‘lga qo‘yish usullari o‘rganilgan. Raqamli iqtisodiyotda inson faoliyatining yetakchi tarmoqlarini samarali rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri – tegishli institutsional muhitni shakllantirishga asosiy e‘tibor qaratilayotganligidan kelib chiqib raqamli iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun asosiy amalga oshirilishi kerak islohotlar, kadrlar va bilimlardan foydalanish shartlari belgilab berildi.</p> <p>Kalit so‘zlar: iqtisodiy rivojlanish; raqamli iqtisodiyot; strategiya; axborot texnologiyalari; raqamlashtirish; raqobatbardoshlik; milliy dastur; internet; biznes; texnopark; tadbirkorlik; startup.</p>
--

Kirish. Bir qancha rivojlangan davlatlar globallashuv jarayonini, jamiyatda innovatsion hamda raqamli texnologiyalarning o‘zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida tizimli harakatni boshladilar. Shunday harakatlardan bastlabkilari bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yetakchi bo‘lgan davlatlar – AQSH va Xitoy tomonidan amalga oshirildi. Ulardan so‘ng raqamlashtirish jarayoniga aloqador dasturlarni Angliya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Avstraliya va boshqalar qabul qildi. Hozirgi vaqtda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlovchi davlat dasturlari ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan. Shu jumaladan O‘zbekiston iqtisodiy ijtimoiy hayotida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, biznesda, davlat boshqaruvida raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish uchun mamlakatimizda ham aynan shunday dastur va qonun hujjatlari qabul qilingan hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot va uning O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirishdagi rolini o‘rganishdan iborat bo‘lib, raqamli iqtisodiyot dasturini tushunish, uni turli xorijiy davlatlar misolida ko‘rib chiqish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning oqilona usullarini o‘rganishdan iborat.

Biz ko‘rib chiqayotgan masalalar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF6079-sonli Farmoni, “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ4699-sonli Qarori, “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ4321 sonli Qarorlarida keltirilgan bir qator vazifalar mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ushbu maqolada amalga oshirilgan tahlillar naqadar dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanib, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kundan kunga rivojlanib bormoqda. Ushbu raqamli texnologiyalardan davlat boshqaruvida, ishlab chiqarish jarayonida va butun jamiyat hayotida keng foydalanilmoqda. Zamonaviy jahon siyosiy amaliyotida bu muhim vazifani elektron hukumat muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Ushbu tadqiqot mavzusini tanlashga yuqorida qayd etilgan dolzarb masalalar ta’sir ko‘rsatdi. Mavzu juda muhim, u davlat boshqaruvini takomillashtirishga hissa qo‘shadigan o‘tkir muammo bilan chambarchas bog‘liq

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni diqqat bilan o‘rganishi kerak. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy tajribani tahlil qilish va joriy etishning ahamiyati ko‘plab o‘quv qo‘llanmalarida muhokama qilinadi. Bir qancha olimlar raqamli iqtisodiyotda mintaqaning inson resurslari va ilmiy va ta’lim salohiyatini rivojlantirish konsepsiyalarini o‘rgangan, ularga Volkova, Galynchik, Qurbonov, Okrepilov, Yakutin. va boshqalarni kiritishimiz mumkin[1,5]. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlatning kichik va o‘rta biznes sohasidagi rivojlanishiga ta’sir qilishi, uning qor to‘pi ta’siriga ega ekanligi, chunki u bir tomondan iste’molchilarning xohish-istaklari va xatti-harakatlarini o‘zgartirib, boshqa tomondan esa, band bo‘lgan inson resurslarining malakasiga ta’sir qilishi haqida M.A.Derkho, S.A. Gritsenko, D.S.Vilver, T.I.Sereda, va N.V.Fominalar ko‘plab tadqiqotlar olib borishgan[2,3]. Ushbu o‘zaro bog‘liq jarayonlarning strategik resurslardan yanada samarali foydalanishga olib kelishi va tashkilotlarning umumiy raqobatbardoshligini oshirishi, iqtisodiyot sohasini davlat tomonidan tartibga solishda raqamli iqtisodiyotni baholash, prognozlash, rejalashtirish kabi jarayonlarni C.Lincaru, S.Pirciog, A.Grigorescu, va G.Tudoselar o‘rganishgan, shuningdek, innovatsiyalar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlari sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi yutuqlarining makroiqtisodiy ahamiyati uchun katta hissa qo‘sha olishgan [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Taqdim etilgan dastlabki tadqiqot texnologiyasi bibliometrik tahlilni o‘z ichiga oladi; iqtisodiy hodisalar va omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish; guruhlash va reyting baholash usullaridan foydalangan holda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Jumladan, Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotimizdagi ulushi, raqamlashtirishga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, mamlakatimizda raqamli mahsulotlar klassifikatsiyasi va eksport-import jarayonlari tahlil qilingan. Makroiqtisodiy, statistik va tahliliy yondashuvlar yordamida raqamli iqtisodiyotni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganilgan hamda, raqamli iqtisodiyot davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini tahlil qilingan.


Tahlil va natijalar. Raqamlashtirish jarayoni bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, har bir davlat raqamli rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Ayni paytda 15 dan ortiq davlat raqamlashtirish milliy dasturlarini amalga oshirmoqda. Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish bo‘yicha yetakchi davlatlar Xitoy, Singapur, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya va Daniya hisoblanadi. Xitoy o‘zining “Internet plus” dasturida raqamli sanoatni an’anaviy tarmoqlar bilan integratsiya qilmoqda, Kanada Torontoda “AKT hub” ini yaratdi, Singapur “Aqlli iqtisodiyot”ni shakllantiradi, uning boshqaruvchisi AKT hisoblanadi, Janubiy Koreya “Kreativ iqtisodiyot”

dasturida inson kapitalini, tadbirkorlikni rivojlantirish va AKT yutuqlarini tarqatish, Daniya esa davlat sektorini raqamlashtirishga e’tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi o‘n yillikda amalga oshirilgan tub islohotlar natijasida yopiq iqtisodiyotni to‘xtatdi va asta-sekin jahon iqtisodiyotining bir qismiga aylanmoqda. Global iqtisodiy jarayonlarda jamiyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalarni inson hayotiga joriy etishdir. Bu axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi yutuqlar bilan bog‘liq bo‘lib Iqtisodiyotning dastavval innovatsion, keyin raqamli rivojlanishi bir qancha investitsiyalar, AKT uskunalari bilan jihozlanganlik, internet tarmog‘ining mavjudligi, dasturiy ta’minot bilan ta’minlanganlik, xodimlar malakasi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekistonda 2020-yilda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi qabul qilingan bo‘lib ushbu strategiya bir qancha hududlarni va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish nuqtayi nazaridan 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur strategiya respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish sur‘atlarini jadallashtirish va raqamli texnologiyalar yordamida aholining turmush sifatini yaxshilash, tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Undan asosan 4 ta yo‘nalishda: elektron hukumat; raqamli industriya; raqamli ta’lim; raqamli infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan dasturlar ishlab chiqilgan va birin ketinlikda amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotimizga ham bevosita ham bilvosita o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolayotgani yo‘q. Ammo rivojlangan davlatlardan farqli o‘laroq raqamli iqtisodiyotning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2% atrofida stabil saqlanib turibti. (1-rasm)




1-rasm. Raqamli iqtisodning O‘zbekiston Respublikasi YaIM sida ulushi.¹

“Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturi amalga oshirilishining birinchi yili bo‘lgan 2020-yilda axborot va kommunikatsiyalar sohasiga investitsiyalar sezilarli darajada o‘stdi: yil davomida +115.9 foizga, ya’ni 4128.2 mlrd so‘mga. Shu bilan birga, 2021- yil dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra 5747.4 mlrd so‘m investitsiyalar AKT va dasturiy ta’minotlar uchun jalb qilingan. Lekin umumiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan solishtirilganda raqamli iqtisodiyotga mamlakatimizda juda kam miqdorda investitsiya jalb qilinmoqda; 2019-yil 1.9%, 2020-yil 3.6%, 2021-yil 2.3%. (2-rasm).


IDC ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 2020-2023-yillarda raqamli transformatsiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 7,4 trillion dollarni tashkil etadi. Shuningdek, 2023-yilga borib raqamlashtirish xarajatlari ulushi AKTga kiritilgan barcha investitsiyalarning 50 foizigacha ko‘tariladi (hozirda bu ulush 36 foizni tashkil etadi). Eng katta o‘shish Big data va Analytika sohasida prognoz qilinmoqda, chunki kompaniyalar ma'lumotlarga asoslangan raqobatdosh ustunliklarni yaratadilar. O‘zbekistonda 2021-yilda Dasturiy ta’minotlarga sarflangan jami xarajatlar 633.4 mlrd so‘mni tashkil etib, yalpi ichki mahsulotning 1 foizga yaqin ulushini tashkil etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tayyorlangan.



2 -rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar va ularda raqamli iqtisodiyotga investitsiyalarning ulushi¹

Mamlakatni raqamlashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq mahsulotlar importi muhim o‘rin tutadi. Shunday qilib, 2021-yilda AKT bilan bog‘liq tovarlarning umumiy importi yil davomida 2020- yilga qaraganda 30 foizga o‘sdi va 979184.2 ming dollarni tashkil etdi. Mamlakatimiz AKT sohasida eksporti yuqori bo‘lmasligi tushunarli hol albatta, ammo importga solishtirganda 2021- yilda 2.2 foizni tashkil qilgan eksportimiz bu borada mamlakatimizda hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar mavjudligidan darak berib turibti. (3-rasm)




3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida AKT tovarlari importi va eksporti.²

O‘tgan davrda mamlakatimizda raqamlashtirish tarmoqlarida qiymat yaratish ham miqdor jihatdan, ham diversifikatsion jihatdan rivojlanib bormoqda. 2015-2021- yil ma’lumotlarini tahlil qilish orqali 2021- yilga kelib bu davrda yalpi qo‘shilgan qiymat yaratish qariyb 4.6 barobarga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

² O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

o'shganini, tarmoqlar qatoriga esa AKT ishlab chiqarish, AKT savdosi, elektron tijorat kabi tarmoqlar qo'shilganini ko'rish mumkin. (4-rasm)



4-rasm. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga sarflangan jami xarajatlar.¹

Xulosa va takliflar. Bugun amalga oshirilayotgan barcha islohotlar strategik ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, siyosiy sohalarida mamlakatimiz istiqbolini mustahkamlashga qaratilgan. Iqtisodiyotimiz yuksalishi bilan xalq farovonligini ham yuksaltirmoqdamiz. Mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida, iqtisodiy jarayonlar sanoatlashtirishning asosiy omili bo'lgan "bilimlar iqtisodiyoti" modeliga sifat jihatidan o'tmoqda. Biroq, har yili yangi qonunlar, yangi loyihalar e'lon qilinganiga qaramay, unda belgilangan vazifalar, aksariyat hollarda, turli muammolarga duch kelgan holatda kutilgan natijaga olib kelmayabti. Xususan, davlatimiz rahbari ushbu murojaatlar orqali xalq oldiga o'z strategik maqsadlarini belgilab, uni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib, mas'uliyatni belgilab berayotganiga qaramay yuqorida tahlil qilgan ma'lumotlarimizga asosan mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bir qator tizimli muammolar haligacha mavjudligini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini ta'minlash, mamlakatimizni raqobatbardosh 50 ta davlat qatoriga kiritish kabi hayotiy g'oyalar, eng avvalo, ana shu muammolarga yechim topish orqali erishiladi.

Yuqorida sanab o'tganimizdek "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi 4 ta yo'nalishni qamrab olgan bo'lib ulardan biri raqamli ta'limni rivojlantirish hisoblanadi. Shunday ekan yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holatda quyidagi tavsiyalar ahamiyatga molik deb bilamiz:

➤ Raqamli iqtisodni mamlakatimiz Yalpi ichki mahsulotida ulushini oshirish. Bu maqsadda yaratilayotgan raqamli mahsulotlar, dasturiy ta'minotlar, elektron tizimlarni ro'yxatdan o'tkazish va egalik huquqini belgilash tizimini takomillashtirishga ahamiyat berish darkor. Qolaversa, mamlakatimizda yaratilgan raqamli mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda ham davlat qo'llab-quvvatlovini oshirish maqsadga muvofiq.

➤ Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibida raqamlashtirish uchun jalb etilgan mablag'lar ulushini oshirish kerak. Raqamli iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishdagi asosiy omillardan biriga aylanganligini e'tiborga olsak raqamlashtirishga jalb etiladigan investitsiyalar o'zini oqlashi shubhasiz.

➤ Mamlakatimizda raqamli mahsulotlar ishlab chiqarishni va ularning eksportini rag'batlantiruvchi tizim ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ko'plab malakali dasturchilarimiz hozirda chet el firmalari uchun ishlashmoqda, ularga o'zimizda yetarlicha sharoit va ish haqi ta'minlansa ular o'z ishlarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga hissa qo'shgan holda amalga oshira

¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

boshlaydilar.

➤ Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar, uning keyingi rivojlanishini bashorat qilish boshlang‘ich, o‘rta, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtiga qadar ta’limning barcha bosqichlariga ta’sir qiladi - bu talabalar tomonidan olingan bilim sifati bilan bevosita bog‘liq. Shunday ekan, oliy ta’lim muassasalaridan boshlab, tashabbuskor, ijodiy, tadbirkorlik qobiliyatiga ega, zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga tez moslashgan o‘zgaruvchan muhit, turli xarakterdagi vazifalarni bajarishga qodir va raqamli texnologiyalarga yo‘naltirilgan yangi tipdagi tabiiy yetakchilarni “yaratish” uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur.

➤ Mamlakatimizda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga, ularni qo‘llab quvvatlashga asoslangan moliyaviy faoliyat sohasini rivojlantirish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada mamlakatimizda boshlangan texnologik startap loyihalari soni va ularning umumiy kapitallashuvi oshadi, iqtisodiyot ehtiyojlarini qondiradigan xususiy professional venchur industriyasi yaratiladi, startaplarining xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari ko‘payadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Derkho, MA, Gritsenko, SA, Vilver, DS, Sereda, TI va Fomina, NV (2019). Qalqonsimon bez gormonining metabolik holati va turli xil zotlarning o‘rnini bosuvchi giltlar shakllanishida iqtisodiy foydali xususiyatlari. Periodico Tche Quimica, 16 (31), 472-483.
2. Glotko, AV, Polyakova, AG, Kuznetsova, MY, Kovalenko, KE, Shichiyakh, RA va Melnik, MV (2020). Tarmoqli raqamlashtirishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tendentsiyalari. Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari , 7(3), 2181-2195. [http://doi:10.9770/jesi.2020.7.3\(48\)](http://doi:10.9770/jesi.2020.7.3(48))
3. Qurbonov T.K. (2018). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va yangi texnologik yo‘nalish iqtisodiyoti dasturi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining dolzarb masalalari , 126-132.
4. Lincaru, C., Pirciog, S., Grigorescu, A., Tudose, G. (2018). Davlat boshqaruvi bandligida past-past (LL) yuqori inson kapitali klasterlari - raqamli infratuzilma davlat investitsiyalari ustuvorligi uchun bashoratchi - Ruminiya misoli. , Tadbirkorlik va barqarorlik masalalari, 6(2), 729-753. [http://doi.org/10.9770/jesi.2018.6.2\(18\)](http://doi.org/10.9770/jesi.2018.6.2(18))
5. Okrepilov VV, Ivanova GN, Monstskix IV (2017). Raqamli iqtisodiyot: muammolar va istiqbollari. Shimoli-g‘arbiy iqtisodiyot: muammolar va rivojlanish istiqbollari , 3-4 (56-57), 5-28.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF6079-sonli Farmoni. www.lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi. www.stat.uz

С.Кодиров	S.Kodirov
Анализ развития цифровой экономики в Узбекистане	Analysis of the development of the digital economy in Uzbekistan
<p>Аннотация: В статье цифровая экономика рассматривается как основной фактор развития отраслей экономики страны. Проанализированы программы цифровой экономики различных зарубежных стран. Изучены методы эффективной организации и внедрения цифровой экономики. Исходя из того, что одним из важнейших условий эффективного развития ведущих секторов человеческой деятельности в условиях цифровой экономики является формирование соответствующей институциональной среды, основные реформы, которые необходимо осуществить для успешного развития цифровой экономики, определены в условиях использования кадров и знаний.</p> <p>Ключевые слова: экономическое развитие; цифровая экономика; стратегия; Информационные технологии; оцифровка; конкурентоспособность; национальная программа; Интернет; бизнес; технологический парк; предпринимательство.</p>	<p>Abstract: The article considers the digital economy as the main factor in the development of the country's economic sectors. The digital economy programs of various foreign countries were analyzed. Methods of effective organization and implementation of the digital economy have been studied. Based on the fact that one of the most important conditions for the effective development of the leading sectors of human activity in the digital economy is the formation of an appropriate institutional environment, the main reforms that must be implemented for the successful development of the digital economy, in the conditions of the use of personnel and knowledge have been determined.</p> <p>Keywords: economic development; digital economy; strategy; Information Technology; digitization; competitiveness; National program; Internet; business; technology park; entrepreneurship</p>

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

9.03.2023 йилда теришга берилди. 22.03.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0016 А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023